

Date: 3<sup>rd</sup> November-2025

“SEVGI SHOIRI, SEVIMLI SHOIR”

Norboyeva Zarina

Turon universiteti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada taniqli shoir Rauf Parfi ijodi va uning o'ziga xosliklari, o'zbek adabiyotshunosligida o'rganilishi, xotira maqolalari, tezislarda shoir shaxsiyati va she'riyatining tahlili tadqiq qilinadi.

**Kalit so'zlar:** lirik mahorat, tematik aktuallik, ijodiy barkamollik, badiiy tasvir, milliy ruh, badiiy kayfiyat

Naydan taralgan mayin kuy, tongda esayotgan huzurbaxsh shabada, sokin yangrayotgan alla qanchalik yoqimli bo'lsa, haqiqiy iste'dod bilan bitilgan she'r ham shunchalik hayotbaxshdir. Negaki undagi tasvir qudrati ruhimizni bir lahzada naydagi mungga, mayin epkinlar huzuriga va yoxud alla sehriga tutashtirishi mumkin. She'r tug'ilayotganda unga shoirning his-tuyg'ulari, o'ychan qalbi, baxtdan sarmast xayoloti, ko'nglini yorib chiqishga intilayotgan mehr-u qahrini yashiriqsiz tarzda she'rga ko'chiradi. Bu kayfiyat bevosita asar ta'sirchanlik quvvatini belgilab beruvchi asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi. Ba'zan mutolaa qila turib sevimli adibimiz O'tkir Hoshimovning: “Haqiqiy asar yozilmaydi, u tug'iladi” degan so'zlari nechog'liq haqiqat ekanligiga amin bo'lasan kishi. Milliy adabiyotimiz tarixida shu qadar mahorat bilan bitilgan, teran mushohadali, badiiyati istiqbolli asarlar yaratilganki, ular shunchaki hayqirishdan yiroq, yasama jimjimadorlikka begona. Misralar orasiga haqiqat quyoshi ustalik bilan yashiringanki, uni har qancha so'z pardozi ortiga bekitmasin baribir kitobxon ongiga bir hovuch nur bo'lib to'kilaveradi. Bunday asarlar yozish esa haqiqiy ilhom kishisidan katta mahoratni talab qiladi.

Ana shunday she'rda shiddatli, so'zda sobit ijodkorlardan biri taniqli shoir, sevimli ijodkorimiz Rauf Parfi. Haq so'zni aytishdan tab tortmaydigan sobitqadam, faqat ko'ngilda tug'ilgan yaratiqni qog'ozga ko'chirgan jonkuyar ijodkor. Erk mavzusida baralla kuylagan chin ma'nodagi haqiqiy insonparvardir.

Rauf Parfining hayot, qismat, insoniylik, she'riyat, adabiyot va boshqa masalalar xususida aytgan, yozib qoldirgan hikmatlari ham takrorlanmas. U san'atning vazifasi haqida shunday yozadi: “San'atning vazifasi insonga o'limni anglatishdir. Shakli qanday bo'lishidan qat'iy nazar... tushungan, anglagan inson hamisha og'riq, fojia bilan yashaydi. Agar ta'bir joiz bo'lsa, shunday aytish mumkin-fojia inson bilan birga tug'ilgan aniq narsa. Inson doimo o'lim bilan yonma-yon yuradi. Toshbaqa kosasini bir umr ortib yurganidek, u o'z o'limini doimo ko'tarib yurishga mahkum. Menimcha o'z o'limini ko'tarib yurgan odam Allohga, o'ziga, birovga xiyonat qilmaydi. Xiyonat yolg'onlardan tug'iladi. Insonning fojiasi yolg'onlarga to'qnashganida boshlanadi. Biz “Yolg'onning umri qisqa” deb o'zimizni yupatamiz. Yo'q, yolg'onning umri uzun. Buni insoniyat tarixiga bir nazar



Date: 3<sup>rd</sup> November-2025



tashlasangiz bilib olasiz”<sup>21</sup>. Shoir san’atni nafaqat go’zallikni yaratish vositasi, balki insonni hayotning haqiqatlariga, ayniqsa, o’limga yaqinlashtiradigan, uni eslatuvchi vosita sifatida ko’rmoqda. O’lim har bir insonning muqarrar haqiqatidir. San’at esa uni eslatadi: hayot abadiy emas, vaqt cheklangan, demak, har on qadrlanishi kerak. Shoirning ushbu jumalari san’atning mohiyatini chuqur falsafiy nuqtayi nazardan tushuntiradi. San’at insonni o’ylashga, o’zini anglashga, yashashning ma’nosi haqida fikr yuritishga undaydi. O’limni unutmay yashagan inson o’zini ham, boshqalarni ham aldolmaydi. Bu fikrlar hayotga jiddiy, mas’uliyatli qarashga chorlovchi bir ruhiy uyg’otuvdir.

Rauf Parfi ijodi o’zgacha, o’ziga xos. Hech kimnikiga o’xshamagan tasvir, kayfiyatdagi isyonkorlik, so’z qo’llashdagi qat’iyat bir dam o’qirmanni esankiratib qo’yadi. Uning she’rlarida kelgindilar bosqini sabab toptalgan Vatan, “o’zidan chiqqan baloga davo topolmay” yurak bag’ri qon bo’lgan sarsona millat, kunda bir nohaqlikni ko’raverib dil-zaboni majruh elning, jim turmoqqa orlangan shoir ruhiyati o’zaro aralashib original badiiylik kasb etadi.

Sulaymon Rahmonning “Suyuk va buyuk shoir” nomli maqolasida (Sharq yulduzi. №10.2023.-B-98-114) Rauf Parfi ijodiga munosabat juda go’zal tarzda ifodalangan. Rauf Parfi she’rlari haqida fikr yurita turib:”Sodda, ravon, ayni paytda qandaydir sehrli, jozibali. Samimiy, musiqiy, o’ynoqi. To’g’ri ilgari ham o’ynoqi she’rlarni ko’p o’qiganman. Ammo Rauf Parfining “Sharq yulduzi”dagi she’rlari men uchun she’riyatning o’zga bir olamini ochdi. Hayronman, nimasi bilan buncha yoqimli bu she’rlar? Ruhga ruhdosh, dilga dildosh. Kayfiyatni xush qiladi. Xuddi o’z ko’nglingdan chiqqanday qadrdon hissiyotga oshno etadi. Ustiga-ustak, yuqumli. Esda tez qoladi. o’z-o’zidan tiliga kelaveradi. Tasvirdagi, ifodadagi ajabtovur yorqin, tiniqlik, ohangdagi, nafasdagi, ovozdagi o’ziga xoslik, ichki joziba bo’rtib turadi. Muhimi, voqelikka nigoh, munosabat o’zgacha. Yana hech bir shoirda ko’rilmagan lison”.<sup>22</sup>

She’rlari mutolaasida haqiqiy o’zbekona soddalik, samimiyat, shoirona lutf, mushohadaga boy tasvirlar, xalqona kayfiyat kitobxonga yuqishi rost.

Tonglar ziyosidan ziyoli dunyo,  
Shodlik daryo kabi sharqirab oqar.  
Baxt singari olis yulduzlar go’yo  
Azal go’zallikning sha’mini yoqar.  
Ko’nglim osmon yanglig’ yorishdi keling  
Cheksizlikni quchib yotar oq qog’oz.  
Yorqin saharlarda Sen, ruhim mening  
Yuksak-yuksaklarga qilaver parvoz.

She’r umid, ruhiy yuksalish, ilhom va go’zallikdan zavqlanish mavzulariga bag’ishlangan. Lirik qahramon tong nuridan, tabiatdan, cheksizlikdan ruhiy quvvat oladi. Ichki dunyosida yuksalishga intiladi. Uning she’riyatida dunyoning ziyoli bo’lishi, nafaqat yorug’likda, balki ma’naviy ravshanlikda yashash tushunchasini beradi. Lirik qahramonning ichki dunyosi yorug’ va ochiq bo’lib, u bu go’zallikka birovni, ehtimol,

<sup>21</sup> Rauf Parfi. Buxoro mavjlari adabiy-badiiy, ijtimoiy-marifiy jurnali. Buxoro.2015-B 16-17

<sup>22</sup> Sulaymon Rahmon. Suyuk va buyuk shoir. Sharq yulduzi. Toshkent.2023. B-98-114

Date: 3<sup>rd</sup> November-2025



ilhomni yoki sevikli kishini, o'quvchini ham chorlaydi. "Cheksizlikni quchib yotar oq qog'oz"<sup>23</sup>. oq qog'oz cheksiz imkoniyatlarga ega. Unda hadsizlik yotadi. Unda hayot, orzu, dard, umidlar aks etadi. shoir ijodida ruhiy uyg'onish, ijodiy ilhom va hayotning go'zalliklarini anglash kuylanadi. Qahramon nafaqat yuragida yuksalmoqda, balki bu go'zallikni boshqalar bilan ham baham ko'rmoqchi bo'ladi. Rauf Parfi lirikasi ana shu jihati bilan ham ta'timlidir. Sulaymon Rahmon Rauf Parfi ijodining tematik aktualligi haqida gapirar ekan quyidagilarni ta'kidlaydi: "Men Rauf Parfi siymosida inja holatlar, nozik kayfiyatlar shoirinigina emas, o'z xalqi va boshqa turkiy xalqlar taqdirini o'ylaydigan zabardast ijodkorni, katta ma'naviy va ruhiy yo'qotishlar, shafqatsiz judoliklarga duchor qilingan millatlarning chinakam ichkuyarini, har qanday istibdodga, xususan, milliy kamsitishlarga, huquqiy cheklashlarga, inson erkinining oyoqosti qilinishiga qarshi dadil bosh ko'targan millatparvar, vatanparvar shaxsni-xalqning sodiq do'stini ko'rib turardim"

Ijod bu inson ruhining eng go'zal ifodasidir. U insoniyatga ato etilgan eng ulug' ne'matlardan biri bo'lib, har bir yurakda yashirinchalik yotuvchi nurdur. Ijodkor-ko'z bilan emas, qalb bilan ko'radigan, odatiy narsalardan ilhom topa oladigan, voqealarga boshqacha nigoh bilan boqadigan shaxsdir. Har bir insonda ijod qilish salohiyati bor. Kimdir so'z bilan, kimdir rang bilan, yana birov ohang bilan ijod qiladi. Ijod bu faqat she'r yoki rasm emas, bu-tafakkur, izlanish va qalbning ichki dunyosini ifoda etishdir. Ijod bu yolg'izlikda kashf etiladigan go'zallik, sukunatda jaranglaydigan musiqadir. U yurakni g'amdan xolos etadi, orzularni yuksaltiradi, hayotga boshqa ranglar baxsh etadi. Ijod qudratli quroldir. U yuraklarni birlashtiradi, kezi kelganda dardga da'vo, quvonchga hamnafas bo'ladi. Yaxshi asar vaqt o'tishi bilan qiymatini yo'qotmaydi-aksincha har zamonda yangidan o'qiladi, qayta-qayta tinglanadi, qayta kashf etiladi. Chunki chinakam ijod-vaqtni yengib o'tadigan haqiqatdir. Rauf Parfi ijodi vaqtni yengib o'ta olgan ijoddir. Uning she'rlari soxta shovqin emas, balki sukutdagi so'z, yuzaki ta'sir emas, balki yurakda aks –sado beradigan asarlardir. Rauf Parfi ijodi insonning o'zini topishi, jamiyat bilan muloqoti, tarixga bitilgan yurak izidir. Yurakda yashiringan ilhomning mahsulidir. Sulaymon Rahmonning: "U kashf etgan she'riy dunyo butun jozibasi: ranglari, jilolari, ohanglari bilan ruhimga, qonimga singib ketdi"<sup>24</sup> degan so'zlari fikrimizning dalilidir.

Sulaymon Rahmonning yuqorida aytib o'tganimiz maqolada muallif tomonidan Rauf Parfi haqida qimmatli ma'lumotlar va esdaliklar yozilgan. Uning tabiati, she'riyati haqida yozish bilan bir qatorda, uning ijodi qoralangan yillar haqida ham yozib o'tadi. Kimlarningdir tavsiyasi bilan shoir ijodi betayin g'am-g'ussalar shoiri sifatida tilga olingan bir paytda Sulaymon Rahmon uni himoya qilib, bir she'r yozganki, haqiqiy do'stlik, haqiqiy shoirlik, qolaversa, haqiqiy insoniylikdan tug'ilgan quyma satrlar.

Ezmang uni, asrang, yetar, ohlamang,  
kuylash huquqidan qilmang benasib.  
kun kelar siz xohi xohlang, xohlamang,

<sup>23</sup> Rauf Parfi. Saylanma.-Toshkent: Adabiyot.2023. B-73

<sup>24</sup> Sulaymon Rahmon. Suyuk va buyuk shoir. Sharq yulduzi. Toshkent.2023. B-98-114

Date: 3<sup>rd</sup> November-2025

zo'r o'g'lon bo'lgay u xalqqa munosib.  
Kuylash yashamoqdir, yashamoq kuylash,  
aldovsiz, nayrangsiz she'r jigar qoni.  
Xayrixoh bo'lmoqning o'zi ham-siylash,  
qo'lingga bermoqdir yarim dunyoni.<sup>25</sup>

Bu she'r ertangi kunga qadalgan ishonch to'la nigohlarning aksi sadosi, istiqlool yillarida o'z qadr-qimmatini, haqiqiy bahosini topajak ijodkorning ertangi kunini, ijodiy kamolotining she'riy bashorati tarzida yozilganday. Negaki muallif Rauf Parfining ham shaxsiyati, ham she'riyati bilan yaqindan tanish bo'lgan, istiqboli yorug' ekanini yaxshi anglagan ijodkorlardan edi. Haqiqiy she'r oddiy fikrni ham betakror uslubda, chiroyli badiiy ifodalar orqali beradi. She'r nafaqat mazmun bilan, balki musiqiyligi bilan yurakka ta'sir qiladi. Uning ohangi yurak urishini eslatadi-tiniq, sokin yoki hayajonli. Haqiqiy she'rni o'qigan odam befarq qolmaydi. U nimanidir eslaydi, his qiladi, ichki savollarga duch keladi yoki o'z hayotini boshqacha ko'ra boshlaydi. Yuz yildan keyin ham o'qiladigan, o'z ta'sirini yo'qotmaydigan she'r-chinakam she'rdir. Unda insoniylik, muhabbat iztirob, orzu kabi abadiy mavzular bo'ladi. Ayni mana shu jihati bilan ham haqiqiy she'r yashovchandir.

Maqola so'ngida Sulaymon Rahmon o'zining haqiqiy bahosini beradi: "Boshqalarni bilmadimu, men uchun Rauf Parfi mutlaqo o'ziga xos fe'l-atvorli, o'z dunyoqarashi va estetik prinsiplariga ega tug'ma shoir-Xudo bergan shoir. Uning shaxsiyatini bilmasa-da, sohir she'riyatiga oshno bo'lgan muhlisi borki, ushbu fikrimga qo'shiladi.

Rauf Parfi nafasi o'tkir shoir.

Rauf Parfi dil shoiri.

Rauf Parfi ruhiyat shoiri.

Rauf Parfi ehtiros shoiri.

Rauf Parfi e'tiqod shoiri.

Rauf Parfi nafosat shoiri, nafis shoir.

Rauf Parfi sevgi shoiri, sevimli shoir.

Rauf Parfi haqiqat shoiri, haqiqiy shoir.

Rauf Parfi o'xshashi yo'q shoir, o'z maktabini ochgan shoir.

Va nihoyat, xuddi shu jihatlari bilan u hech mubolag'asiz ulug' shoir".<sup>26</sup>

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Rauf Parfi. Tanlangan asarlar. Adabiyot nashriyoti. Toshkent. 2023.-B-74
2. Rauf Parfi hikmatlari. Buxoro mavjlari adabiy-badiiy, ijtimoiy-marifiy jurnali. Buxoro. 2015-B-16-17
3. Sulaymon Rahmon. Sharq yulduzi jurnali. Toshkent. 2023-B-98-114

<sup>25</sup> Sulaymon Rahmon. Suyuk va buyuk shoir. Sharq yulduzi. Toshkent. 2023. B-98-114

<sup>26</sup> Sulaymon Rahmon. Suyuk va buyuk shoir. Sharq yulduzi. Toshkent. 2023. B-98-114

